

MUTAFAKIRLARNING ILMIY – FALSAFIY QARASHLARIDA
TA’LIM VA TARBIYA MASALALARI

*G‘aybullayev Boburmirzo Nomonjon o‘g‘li
Namangan viloyati University of Business and
Sciense nodavlat oliv ta’lim muassasasi
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Bu maqolada o‘rta asr sharqining mashhur mutafakkirlari Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino va Xorazmiyning ta’lim tarbiyaga oid ilmiy-falsafiy qarashlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Abu Nasr Farobi, axloq-odob, bilim inson, ta’lim-tarbiya. Bugungi kunda yoshlar ma’naviyatini o‘stirish, ularni keng dunyoqrashli, erkin fikrlaydigan, iymon-e’tiqodli, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda kitobning o‘rni beqiyos.

Kitob - tarbiyaning eng ta’sirchan vositasi, - deydi mutrafakirlarimiz. Mutolaaga oshno tutingan boladan yomonlik chiqmaydi. Farzanlarimizdagи kitobga mehr esa, avvalo, oilada kamol topadi. Ota-onalar farzandiga namuna, o‘rnak bo‘lishi lozim. Eng yaxshi tarbiya vositasi kitobdir! Ayniqsa yoshlarning baxt-u kamoli, osoyishta va faravon hayotida kitobning alohida o‘rni bor. Yaxshi kitob insonni Vatanga muxabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat tuyg‘ularini yuksaltirish, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. O‘zbek xalqi ham o‘ining ta’lim – tarbiyaga oid boy boyerosga ega. Insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, iymon-e’tiqot, mehr-muhabbat, ododblilik fazilatlarini shakllantirishni o‘ziga xos tajriba to‘plagan. Mutafakirlarning ta’lim tarbiyaga oid qarashlari bu tajribalarni shakllantirishda ulkan ta’sir ko‘rsatdi.

Abu Nasr Farobi – O‘rta asr sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ‘ibotchisidir. U umrini ilm sohalarini o‘rganishga, kitoblar yozishga sarflagan mutafakkir, o‘z vatanidan uzoqlashib ketishiga qaramasdan, o‘z ona tili–turkiy tilni unutmagan va o‘z milliy kiyimida yurgan, milliy odatlarga rioya qilgan. Farobi o‘zining yuksak ilmi bilan hammani hayratda qoldirgani uchun ham xalq orasida “Muallimi soniy”, ya’ni “Ikkinchi muallim” degan nom bilan mashhur bo‘lgan.

Farobi bizga juda katta ijodiy meros qoldirgan. Bu asarlarning to‘liq ro‘yxati bo‘lmasada, ularning barchasida mutafakkirning o‘z zamonasi fanning turli sohalari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lganligi va ko‘plab tillarni bilganligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Farobiyning ta’lim-tarbiyaga haqidagi qarashlarida insonparvarlik g‘oyalari alohida o‘rin tutadi. Uning ta’kidlashicha, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa bo‘la

olishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga eltish har qanday davlat jamoa boshlig‘ining vazifasi bo‘lishi darkor.

Farobiyning ta’kidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borishi lozim. Tarbiyanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni – bilimli bo‘lishiga, to‘g‘rilik va haqiqatni sevishga, jasur, do‘srlarga sadoqatli bo‘lish singari fazilatlarni egallahsga intilmog‘i lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo‘lish uchun baxt saodatga eltuvchu jamoa bo‘lishi kerak.

Farobiy insonga xos hamda uning ma’naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta’lim – tarbiyaning asosini tashkil etuvchi jarayon hisoblaydi.

Farobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi. Shunga ko‘ra u o‘z asarlarida insonga tarbiya va ta’lim berish zarurligini aytadi va bunda ta’ lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o‘rinni egallahshini qayd qiladi. Farobiy insonning ma’naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga : 1)Aql-u ongiga 2)Axloqiga (xulq-atvoriga) e’tibor beradi. Shuning uchun ta’lim–tarbiya, uning fikricha, insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog‘i lozim. Demak, ta’lim – tarbiyaning birdan–bir vazifasi–jamiyat talablariga to‘la to‘kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir.

“Ideal shahar aholi ilmining fikrlari” hamda “Baxt-saodatga erishuv haqida” nomli risolalarida olimning bu fikrlari yaqqol ifodalangan.

Olim ta’lim faqat so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan amalgalashishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish–harakat, kasb–hunarga o‘rganishdan iborat deb hisoblaydi. Demak Farobiy ta’lim va tarbiya berishni bir-biridan farq qiladi. Ta’lim kishining nazariy faoliyatida, Tarbiya esa amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi, yoshlarga u ma’lum ish–harakat, kasb-hunar, odob orqali singdiriladi.

Farobiy ta’lim–tarbiya berish usullari haqida shunday yozadi: “Amaliy fazilatlar va amaliy san’atlar (kasb–hunar va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yo‘l bilan hosil qilinadi: **birinchi yo‘l** qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi va malakalar vujudga keltiriladi, odamdagagi g‘ayrat, kasbga intilish harakatga aylantiriladi). **Ikkinchi yo‘l**–majbur etish yo‘lidir. Bu usulga gapga ko‘nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroi xalqlariga nisbatan ishlataladi. Chunki ular o‘z istaklaricha, so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emasdir. Ammo ulardan qaysi biriki, nazariy bilimlarni o‘rganishga astoydil kirishsa hamda faoliyati yaxshi bo‘lib kasb–hunarlarini va juz’iy san’atlarini egallahsga intilishi bo‘lsa, bunday odamlarni majbur etmaslik lozim, chunki maqsad ularni fazilat egasi qilib kasb-hunar ahllariga aylantirishdir”.

Umuman, Farobiy o‘z davridagi yoshlarning ta’lim olishlari, bilim egallashlari, hunar o‘rganishlari, faoliyat ko‘rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirgan. Bu fikrlar hozirda ham ta’lim–tarbiyada g‘oyat muhimdir. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Forobiy «Baxt – saodatga erishuv to‘g‘risida» asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu–olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat o‘simplik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi. Bunda Forobiy ta’lim – tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim–tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan komolga yetkazadi, xususan, inson, tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi.

Demak, Forobiy ta’lim–tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. **Ta’lim** – degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; **Tarbiya** – nazariy fazilatni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim.

Abu nasr Forobiy yana aytadi: «Ta’lim – degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir»

Forobiy nazariy bilimlarni egallahsga kirishgan har bir kishi xulq–odobda ham qay darajada pok bo‘lishi kerakligini «Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida»gi risolasida shunday ta’riflaydi: «Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto‘g‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lgan hirs-havas qolsin. Bunga xulq axloqni faqat so‘zdagina emas, balki haqiqatda tozalash orqali erishish mumkin. Shunday so‘ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo‘lini tushunib olishga boshlovchi, nafsi, jonini, ruhini tozalash zarur». Forobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l–ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat-nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta’lim so‘z va

o‘rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi. Farobi yosh avlodni kamolga yetkazishda u yashayotgan jamiyatdagi muhit, hayotiy tajriba, talim-tarbiyaning ta’siri va bu ta’sir natijasida ular o‘zlaridagi ijobiliy yoki salbiy xislat-fazilatlarni namoyon qilishlarini aytadi. Jamiyatdaadolat asosiy mezon bo‘lsa, uning a’zolari ham insof va diyonatli, mehr-oqibatli bo‘ladilar. Inson jamoasi to‘g‘risidagi ta’limotining asosini kishilarning ongli harakatini, xulq-odatlari, tabiy -mayillari, istak va malakalarini, faoliyatlarini va turmush darajalarini o‘rganish masalalari tashkil etadi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino Buxoroning Afshona qishlog‘ida tavallud topgan. Ibn Sinoning tibbiyotga doir o‘nlab qo‘llanmalari mavjud. G‘arbda “Avitsenna” nomi bilan shuhrat qozongan ibn Sino 57 – yil umrguzaronlik qilgan bo‘lsada o‘z olamining yetuk vakili bo‘lgan. Kamolot sari harakat qilar ekan ibn Sino hayotga, undagi borliqdagi savollarga o‘z ma’naviyati bilan javob berar ekan – “Insonning kamoloti, tarbiyasidadir”, ya’ni uning fikricha, tarbiya odamda narsa va hodisaga ongli munosabatda bo‘lishni rivoj toptirishi kerak. Abu Ali ibn Sino bolaning o‘smirligidan uning manaviy olami, ruhiyati, tarbiyasiga, uning kelajak uchun foydali yetuk inson bo‘lishini xohlar ekan, avvalo bolaning ta’lim tarbiya nazariyasiga alohida e’tibor beradi. Uning nazarida “Onglilik inson baxtining asosidi. Har bir inson kuchli, aqli, jismoniy jihatdan yetuk bo‘lmog‘i lozim. Agarda kishida bu hislatlar bo‘lmasa tom ma’noda inson jamiyat a’zosi bo‘la olmaydi” deydi.

Shu bilan birga ta’limga alohida e’tibor berar ekan uning tarbiya nazariyalari quyidagicha: Har bir insonda axloqiylik tug‘ma holda bo‘lmaydi. Aksincha tarbiya orqali shakllanadi, olimning fikricha faqat o‘z shaxsiy manfaati uchun emas, balki boshqalar uchun ham yashaydigan insonni shakllantirish kerak. Buning uchun esa yoshlarda kuchli axloqiylikni, do‘stlikni, iroda va e’tiqod kabi tuyg‘ularni shakllantirmoq zarur.

Muhammad al-Xorazmiyning tarix va musiqaga oid, quyosh soatlari to‘g‘risida ham asarlari bo‘lib, «Tarix kitobi» («Kitob at-tarix») xalifalik tarixiga oid va xalifalikning birinchi tarixchilaridan sanaladi. Shuni ta’kidlash joizki, alloma o‘zigacha bo‘lgan ilmiy bilimlarning asosiy g‘oyalari, metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o‘rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e’tiborni qaratdi. Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to‘plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushuntira olish malakalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-1 muqobala» asarida olimlarni uch guruhga bo‘lib shunday yozadi: «Ulardan biri o‘zidan awalgilar qilgan ishlami amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi va uni o‘zidan keyin

qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo‘lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to‘playdigan odam bo‘lib, u o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi». Muhammad al-Xorazmiyning bu fikrlari bir tomondan, olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritsa; ikkinchi tomondan, o‘sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o‘qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko‘rsatadi. Barcha mutafakkirlar kabi Muhammad al-Xorazmiy ham ko‘rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko’nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan foydalangan. Allomaning arifmetikaga oid risolalari tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e’tibor bergenligini ko‘rsatadi.

Xullas pedagoglar bola tarbiyasida har xil o‘zlari uchun oson va bola uchun foydali bo‘lgan bir qancha yangicha to‘xtam va fikrlarga kelishgan. Xususan bola voyaga yetar ekan shakllanar, insonlar bilan jamiyat bilan muloqotga kirar ekan u shaxs sifatida o‘sha jamiyat bilan muloqot qila olmog‘I kerak. Ommaviy madaniyat ta’sirni axloqiy qarashlari o‘z odabi bilan uyg‘unlashtirishi kerak. O‘z dunyo qarashini kengaytirmog‘i yuqoridagi ibn Sino kabi yana bir qancha pedagoglar: A.Avloniy, at-Termiziyy, alBuxoriy, Abdurahmon Jomiy kabi bola tarbiyasida muhim bo‘lgan qarashlari bor insonlar asarlaridan mutolaa qilmog‘lik joiz. Zero “Yoshlikda lingan ilm – toshga o‘yilgan naqsh kabitir”, - deydi A.Navoiy. ilm insonni g‘oyatda yetuklikka undovchi bebafo boylik...

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. – Toshkent, Fan, 1975.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Abdulla qodiriyl nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt, saodat va kamolot haqida. – Toshkent, Yozuvchi, 2001.
4. Muhiddinova F. “Forobiy siyosiy – huquqiy ta’ limotida qonun va qonunchilikni takomillashtirish konsepsiysi”. Toshkent,